



YANGI KONSTITUTSIYADAGI O'ZGARISHLARNING YOSHLAR HAYOTIDA TUTGAN O'RNI

Shavkatov Behruz Rustam o'g'li

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti,

Bank ishi fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yangi Konstitutsiyada kiritilgan o'zgarishlarning yoshlar hayotiga ta'siri tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor ta'lim, mehnat huquqlari, ijtimoiy himoya va yoshlarga oid davlat siyosatidagi yangiliklarga qaratilgan. Yangi normalar yoshlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, ularning jamiyatdagi rolini mustahkamlash hamda shaxsiy va kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Konstitutsiyaviy islohotlar yoshlarning huquqiy va ijtimoiy himoyasini kuchaytirib, ularning faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: konstitutsiya, davlat suvereniteti, ijtimoiy davlat, referendum, bandlik, pensiya tizimi.

Аннотация: В этой статье анализируется влияние изменений, внесенных в новую Конституцию, на жизнь молодежи. Основное внимание уделяется инновациям в государственной политике в области образования, трудовых прав, социальной защиты и молодежи. Новые нормы направлены на расширение прав и возможностей молодежи, укрепление ее роли в обществе и поддержку ее личного и профессионального развития. Результаты исследования показывают, что конституционные реформы способствуют укреплению правовой и социальной защиты молодежи, формированию у нее активной гражданской позиции.

Ключевые слова: Конституция, государственный суверенитет, социальное государство, референдум, занятость, пенсионная система.



Abstract: This article analyzes the impact of the amendments made to the new Constitution on the lives of young people. The main focus is on innovations in public policy in the fields of education, labor rights, social protection and youth. The new standards are aimed at empowering young people, strengthening their role in society, and supporting their personal and professional development. The results of the study show that constitutional reforms contribute to strengthening the legal and social protection of young people and the formation of their active citizenship.

Keywords: Constitution, state sovereignty, welfare state, referendum, employment, pension system.

Yangi konstitutsiya bu yangi qonun qoidalar va yangi nizomlarni o‘zida mujassam etgan qonun- qoidalar majmuasidir. Bu konsitutsiyani qabul qilish O‘zbekistonning barcha fuqarolari o‘z huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suveriniteti prinsiplariga sodiqligini tantanali ravishda e’lon qilish demakdir. Har bir davlat fuqarolarining hayoti erkinligi sha’ni qadr- qimmatli oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlat bo‘lishi lozim. Shundan kelib chiqib O‘zbekiston Respublikasida ham yangi O‘zbekistonni qurishda 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi qabul qilindi. Bu konstitutsiya 6 bo‘lim, 27 bob va 155 ta moddadan iborat. 1-bo‘lim asosiy prinsiplar deb nomlanib, bo‘lim davlatimizning suveriniteti, konsitutsiyaning xalq manfaatlariga xizmat qilishi, davlat organlarining mansabdor shaxslar, jamiyat va fuqarolar oldida ma’sulligi kabi prinsiplar alohida qayd etilgan.



TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat suveriniteti deganda biz davlat o'z mustaqilligiga, ramzlariga, hududiy tuzilishiga, tiliga ega bo'lishini chunamiz. Bu elementlar davlatning davlat deb nomlanishiga asosiy ta'sir etuvchi omillar hisoblanadi. Yangi konstitutsiyamizning I bobi ham davlat suveriniteti deb nomlanadi. Ya'ni bizning davlatimiz huquqiy, demokratik va dunyoviy xususiyatiga ega boshqaruvning respublika shakliga ega davlatdir. Shuningdek konstitutsiyamizning yangi tahrirdagi qonunchiligida yana bir xususiyat ya'ni ijtimoiy davlat xususiyati ham qo'shildi. O'zbekiston o'zini **ijtimoiy davlat** deb e'lon qilishi bilan, har bir fuqarosiga munosib turmush kechirishi uchun shart-sharoit yaratish majburiyatini olmoqda. Bu – mavjud resurslarni ijtimoiy adolat tamoyillari asosida taqsimlash, jamiyatda kuchli tabaqalanish avj olishiga yo'l qo'ymaslik, eng zaif qatlamlar uchun ham sifatli ta'lim va tibbiyot kafolatlanishi, samarali ijtimoiy himoya dasturlari ishlashi, imkoniyati cheklangan va qo'llovga muhtoj fuqarolarni qo'llab-quvvatlash, adolatlil mehnat qonunchiligi va jozibador pensiya tizimi kabilarni anglatadi. Oddiyroq aytganda, eng kambag'al oilaning bolalarida ham sog'-salomat o'sib-ulg'ayib, yaxshi ta'lim olib, farovonlikka erishish imkoniyati bo'lishi kerak. Bu yangi tahrirdagi konstitutsiyamizdagi o'zgarishlardan biri. Bu moddaning kafolati qilib esa Yangi konstitutsiyaning 154-moddasi bilan, **1-moddadagi qoidalarni qayta ko'rib chiqish mumkin emas**, deb belgilandi. Xuddi shuningdek, 154-moddaning o'zidagi aynan shu qoidadan iborat band ham qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas. Bundan shuni xulosa qilishimiz mumkinki bizning davlatimiz Prezidentlik respublikasi sifatida o'z boshqaruvini davom ettiradi va monarxiya, islomiy davlatga aylanmaydi. Shuningdek konstitutsiyamizning 15-moddasiga ham o'zgartirishlar kiritildi. 15-moddasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi. Bunda esa Konstitutsiyamizga yozib qo'yilgan



normalar to'g'ridan- to'g'ri Oliy sud va sudlarda amal qiluvchi hujjatga aylanishi ta'kidlab o'tilgan.

Konsitutsiyamizga qarshi qilingan har qanday noqonuniy xatti-harakatlar esa qonun oldida javobgarlikka tortilishiga olib keladi. Konstitutsiya faqatgina mansabdor, davlat organlari foydasiga emas balki butun xalq manfaatlarini himoya qiluvchi qonuniy norma sifatida qaralishi lozim. Qonun oldida barcha teng huquqlidir. Konstitutsiya aynan shu tamoyil nazoratini alohida tartibga soladi. Yangi tahrirdagi konstitutsiyaga ijtimoiy, siyosiy, axborot sohalarda ham o'zgartirishlar kiritildi. Ijtimoiy sohada o'qituvchilarga alohida e'tibor berildi. O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi. Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi. Shu tariqa, ustozlar huquq sohasi vakili bo'lmagan, lekin oliy qonunda alohida tilga olingan yagona kasb egalariga aylandi.

Konstitutsiyada nomi keltirilgan o'qituvchilardan boshqa kasb egalarining barchasi – huquq sohasi vakillari (sudyalar, prokurorlar va advokatlar). Boshqa holatlarda kasb egalari emas, sohalar haqida gap ketgan (masalan, ommaviy axborot vositalari, turli jamoat birlashmalari). Bundan esa o'qituvchilarga qonuniy tomondan ham qo'llab-quvvatlash ko'rsatilmoqda. Har bir inson ta'lim-tarbiyani oiladan so'ng albatta maktabda o'rganadi.

Bu qonunning mazmun mohiyati, shundan iboratki o'qituvchilarni kamsitish, turli xil tuhmatlar qilish kabi holatlarga uchraganida endi jiddiy qonuniy choralar ko'rilishi ta'kidlab o'tilgan. O'qituvchilar mehnatini ularga nisbatan oylik ish haqisini bosqichma-bosqich ko'tarish orqali rag'batlantirish lozimligi ya'ni davlat tomonidan moddiy ta'minlov qilinishi ham yozilgan. O'qituvchi xalqning har bir yosh farzandini turli xil sohalarga qiziqitirish orqali uning dunyoqarashini, tevarak-



atrofidagi muhitni yaxshilashda juda katta ahamiyatga egaligi uning sog'lom jamiyatni shakllantirish, davlatni rivojlantirishga turtki bo'ladi. Bu esa ularning o'z kasblariga bo'lgan fidoyiligini oshirishga xizmat qiladi.

Konstitutsiyamizning ushbu qonuni kelajakda ta'lim sifatini rivojlantirishga xizmat qilishiga ishhonishimiz mumkin. Konstitutsiyamizning siyosiy o'zgarishlardan biri bu Senatlarning sonini 100 tadan 65 taga tushishi, ya'ni 14 ta hududdan 6 nafardan emas, 4 nafardan senator saylanadi, prezident tomonidan tayinlanadigan senatorlar soni 16 nafardan 9 nafarga qisqaradi. Bu o'zgarish 2024-yilda bo'ladigan parlament saylovi vaqtida kuchga kiradi. Qonunchilik palatasi deputatlari sonini (150 nafar) oshirmaslikka, o'zgarishsiz qoldirishga qaror qilindi. Bu qonunda davlat byudjetining xarajatlari qismini biroz bo'lsa-da qisqartirish va ushbu qisqartirish natijasida yig'ilgan mablag'larni ijtimoiy sohaga yo'naltirish nazarda tutilgan. Bu ishlab chiqilgan qonun ijtimoiy davlat tuzishga qaratilganligiga yana bir o'ziga xos xususiyat sifatida e'tirof etishimiz mumkin.

Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan qonunlar butun O'zbekiston Respublikasida so'zsiz amal qilinishi lozim. Har bir inson sog'lom turmush tarzini, farovon hayot yo'lini tanlashida unga albatta konstitutsiyamizda belgilab qo'yilgan huquqlaridan samarali foydalanishi yordam beradi. Konstitutsiyamizning 7-bobi aynan bizning ya'ni millatidan qat'iy nazar O'zbekiston fuqarolarining huquq va erkinliklari keltirib o'tilgan. 25-modda yashash huquqi bu moddaning mazmuni har bir inson tinch va farovon hayot kechirishi va bu narsa qonun orqali muhofaza qilinishi haqida yozib o'tilgan va ushbu moddada O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosi taqiqlanadi jumlasini ham keltirib o'tilgan. Bu bizning dinimizga nomutanosib bo'lgan qonunga qarshi qonun sifatida ishlaydi. O'lim jazosi bekor qilinishi eng to'g'ri qonuniy islohotlardan biri hisoblanadi. 26-modda. Har bir inson sha'ni qadrdiqimmatiga hic kim tajovuz qilishi mumkin emas .



Hech qanday asos shaxsning qadr-qimmatini kamsitishga asos bo‘la olmaydi. Bunda har bir inson erkin fikrlash o‘zi hohlagan turmush tarzida yashashi mumkin va u to‘liq mustaqil hayot kechirishi lozim. Yoxud shaxs tomonidan kamsitilishi, uning roziligisiz ilmiy va tibbiy tajribalar o‘tkazilishi mumkin emas. 29-moddada esa har kim malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanishi keltirib o‘tilgan, ushbu qonunning ijrosi sifatida biz fuqarolarimizning huquqiy savodxonligini oshirishda ko‘maklashadigan yurist-konsul xodimlarini ish faoliyatini keltirishimiz mumkin. Davlat xizmatlari agentligi markazlarida ushbu qonunning ijrosi sifatida yurist-konsul xodimlari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan ya’ni bundan ko‘rinib turibdiki ushbu xodimlar xalqqa xizmat ko‘rsatib qonunning xalq uchun inson manfaatlari uchun ishlayotganiga yaqqol misol bo‘la oladi. Huquqlarimiz faqat siyosiy ijtimoiy xarakterga emas balki iqtisodiy, madaniy va ekologik xarakterga ham egadir. 41-modda.

Har bir shaxs mulkdor bo‘lish huquqiga ega, bunda inson shaxsiy firma yoki korxonasidan yoki ma’lum bir vaqtlar jamlangan mablag‘lar evaziga olingan foydaga ko‘char yoki ko‘chmas mulk sotib olgan holda mulkdor bo‘lishi nazarda tutilgan. Bankka qo‘yilgan omonatlari, uning kirim-chiqim operatsiyalari hech kimga yoritilmagan holda sir saqlanishi lozim. Xomlador ayol ish beruvchi tomonidan bo‘shatib yuborilishi mumkin emas, xomiladorligi yoki yosh bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo‘shatish va ularning ish haqisini kamaytirish taqiqlanadi (42-modda).

Hozirgi kunda statistik ko‘rsatkichlarga nazar tashlasak rivojlangan mamlakatlarda aholi jon boshiga 6 ming dollarga to‘g‘ri keladi. Bu qonunning asl mohiyati homlador ayol ham ishlashga zaruriyati borligi va bu uning oilaviy budjetiga ma’lum bir salbiy omillarni ta’sirini kamaytirishning asosiy omili sifatida ishtirok etishi natijasida vujudga kelishini ifodalab beradi. Ushbu qonun ham iqtisodiy huquqlarimizdan biri hisoblanadi. Hammamizga ma’lumki davlat xalq



uchun xizmat qilishi lozim. Insonning tinch, farovon, barkamol hayot kechirishi albatta davlat bilan bog‘liq. Davlat ushbu vaziyatda aholining kasbiy malakaviy, salohiyatini, mutaxassislik yo‘nalishini hisobga olgan holda aholini bandligini ta‘minlashi va ishsizlik, kambag‘allik kabi ko‘rsatkichlarni qisqartirish choralarini ko‘rishi lozim. Ushbu islohotlar amalida davlat yosh kadrlarni qayta tayyorlov o‘quv kurslari va malaka oshirish institutlarini tashkil qilishi lozimligi ham O‘zbekiston Respublikasining 43-moddasida keltirib o‘tilgan.

Mamlakat makroiqtisodiy ko‘rsatkichlaridan bir bu bandlik darajasi. Bandlik darajasi o‘z navbatida mamlakat ishlab chiqarish salohiyati, eksport va import hajmiga ta‘sir o‘tkazadi. Davlat shu masalalarda aholining ishsiz qismi huquqlarini himoya qilish vazifasini o‘z zimmasiga olishi yozib qo‘yilgan. Har bir bola 18 yoshga to‘lgunga qadar ota-ona qarmog‘ida hisoblanadi. Hech kim uni 18 yoshga to‘lmagunicha ishga jalb qilishga haqli emasdir. Chunki bola yoshligidan mehnatga jalb qilinishi uning sog‘lig‘iga aqliy salohiyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun O‘zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasining 44-moddasida: Bolalar mehnatining bolaning sog‘lig‘iga, xavfsizligiga axloqiga aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi shu jumladan uning ta‘lim olishiga to‘sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanishi haqida yozilgan. Huquqlarimiz bilan birga O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining burchlari ham Konsitutsiyamiz qomusida yozib o‘tilgan. Ulardan eng asosiysi bu 59-modda: Barcha fuqarolar Konsitutsiyada belgilab qo‘yilgan burchlarini bajaradilar.

Fuqaro konsitutsiyada keltirib o‘tilgan qonunlarga rioya qilish va ushbu qonunlarga zid keladigan noqonuniy harakatlar qimasligi, xalqimizning tarixiy, ma‘naviy, tabiiy merosini asrab avaylashi, qonunda belgilab qo‘yilgan moddaga ko‘ra harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tashi majburligi bular barchasi O‘zbekiston Respublikasi davlatining fuqarolarining burchlaridir. Burchimiz Vatanga nisbatan muhabbat, komillik sari intilish turli xil diniy ekstremistik, terroristik oqimlardan



yiroq bo'lishga da'vat etadi. Biz ham o'z burchlarimizni to'g'ri bajargan holda Vatanga munosib farzand bo'lish, uning kelajagi rivoji uchun o'z hissasini qo'sha oladigan darajada ilmiy salohiyatli, kasbiy malakali, o'z yo'nalishining yetuk mutaxassisi bo'lish kabi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan kadr bo'lib yetishishimiz uchun barcha imkoniyatlar yetarli. Prezidentimiz tashabbuslari bilan harbiy mudofaa sohasidagi vatanparvar, xalqparvar, jasur, mard o'g'lonlarimiz ham ana shu Konstitutsiyamizda keltirib o'tilgan burchlarini sharafli ado etgan holda munosib rag'batlantirib kelinmoqda. Konstitutsiyamizning 12-bobida esa Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek "Investitsiya bo'lmasa iqtisodiyot rivojlanmaydi" [3].

Ushbu jumla jalb qilingan xorijiy mablag'lar haqida, iqtisodiyotni rivojlantirish uchun qilingan iqtisodiy islohotlar natijasidir. Investitsiya va ishbilarmonlik muhitini davlat o'z kafilligiga olgan holda qulay muhit yaratib berishi kerak. Ushbu qonun Konstitutsiyamizning 67-moddasida keltirib o'tilgan. Haqiqatda ham investitsiya muhitining shakllanishi mamlakat iqtisodiy o'sishiga yuqori darajada ta'sir o'tkazadi. Tarmoq sohaslariga kiritilgan investitsiya samarali chiqishi uchun ham investitsiya muhiti juda muhim hisoblanadi. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda qabul qilingan "Investitsiyalar va investitsiyalar faoliyati to'g'risida"gi (yangi tahrirda) qonuni ham aynan davlatning ushbu vazifasini belgilab o'tilganligidan dalolat beradi. Bu qonunning asl maqsadi O'zbekistonda qulay investitsiya muhitini yaratish va chet ellik investorlar uchun turli xil imtiyozlar berishdan iborat. Shunidek konstitutsiyamizning ushbu bobida tadbirkorlar barcha turdagi tarmoq sohaslarida faoliyat yurita olishi mumkinligi (qonunga zid bo'lmagan taqdirda), monopol korxonalar davlat tomonidan tartibga solib turilishi haqida ham keltirib o'tilgan

Davlatimizning eng kichik bo'g'ini bu oiladir. Oila, jamiyat davlat muhofazasida bo'lishi lozimligi, ularni davlat o'z himoyasiga olishi, davlat oila rivojlana olishi uchun qulay iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy shart-sharoitlar yaratib



berishi kerakligi nazarda tutilgan. Buning misoli qilib biz har yili davlat tomonidan kam ta'minlangan oilalarga birlamchi ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladigan moddiy yordam ko'rsatishi, ularga kiyim-kechak. o'quv qurollari berishini olishimiz mumkin. Bundan tashqari yosh oilalarga davlat tomonidan subsidiyalar ajratilishi ham ushbu qonunning ijrosi bo'lib xizmat qilayotganligiga ishonsak bo'ladi. Davlatimiz yoshlarni ham turli jabhalarda rag'batlantiradi. Misol qilib turli xil tanlovlar, startap loyihalari, olimpiadalarni olishimiz mumkin.

Ushbu rag'batlantirishlarni qonuniy kafolati sifatida esa biz O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 79-moddasini olishimiz mumkin. Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotidagi faol ishtirok etishini rag'batlantiradi. Hozirgi globallashuv jarayonida ma'lumotlar juda katta tezlikda tarqalmoqda. Ushbu ma'lumotlarning aniqlilik, ishonchlilik darajasi esa qonun tomonidan tartibga solinishi lozimligi davr talabidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 81-moddasida: Ommaviy axborot vositalari erkinligi va ular qonunga muvofiq ish olib borishlari to'g'risida yozilgan. Bunda ommaviy axborot vositalari o'zi taqdim etadigan axborotning ishonchliligi uchun javobgarligi belgilab qo'yilgan.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyadagi eng dolzarb o'zgarishlardan yana biri Prezidentning vakolat muddati 5 yildan 7 yilga uzaytirilishi, Prezident bosh vazir nomzodini taqdim etishdan oldin parlamentga kirgan barcha partiyalarning fraksiyalari bilan maslahatlashuvlar o'tkazishi belgilanishi, bosh vazirni tayinlash va unga ishonchsizlik votumi bildirishda Senatning ishtiroki bekor qilinishi, Qonunchilik palatasi qonunlar bo'yicha qo'shimcha vakolat olishi kabi o'zgartirishlar kiritildi. 1-o'zgarish bu Prezidentning vakolat muddati ilgari 5 yil endi esa 7 yil bo'lishi, deputatlar nomzodni uch marta rad etsa, prezident bosh vazirni tayinlab, Qonunchilik palatasini tarqatib yuborishga haqli, ilgari esa bosh



vazir nomzodini Qonunchilik palatasida eng ko‘p o‘rinni egallagan partiya taklif qilar, prezident ma‘qullagach, nomzod ikki palata tomonidan tasdiqlanishi talab etilardi.

Bu ham yangi konsitutsiyamizdagi islohotlardan biri hisoblanadi. Eng oxirgi yangilik hokimlar kengash raisligidan ketadi, mahalliy davlat boshqaruvida vakillik va ijro etuvchi organlar bir-biridan ajratilmoqda, bu boradagi eski tartib hokimiyatning bo‘linish va hokimiyat bo‘g‘inlarining o‘zaro tiyib turish prinsipiga zid. Bosh qomusning yangi tahririga asosan, bunga barham berilib, mahalliy kengashlar saylanadigan vakillik organlari, hokimliklar esa ijro organlari deb belgilanmoqda. Yangi tahrirdagi konstitutsiya shu kabi o‘zgarishlarni o‘zida mujassamlashtirgan yangi qonundir. Ushbu qonun 2023-yil 1-maydan boshlab kuchga kirdi. Konstitutsiya barcha inson, shaxs, jamiyatdagi turli xil huquqbuzarliklar, jinoyatchilik, isyongarchilik, inqiroz, urush, siyosiy muammolar, davlatchilik munosabatlari, sud-huquq tizimlari, mamlakat ichki siyosatining barcha jabhalari, tashqi siyosat kabi masalalarni tartibga soluvchi qonunlar mexanizmidir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Konstitutsiya har bir davlat taraqqiyotining poydevori bo‘lgan huquqiy, siyosiy va mafkuraviy hujjat – mamlakatning Asosiy qonuni hisoblanadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar insonning sha‘ni, qadr-qimmatini, huquq va erkinliklari bundan buyon barcha sohalarda ustuvor ahamiyat kasb etishini qat‘iy qoidaga aylantirish, bir so‘z bilan aytganda, “Inson qadri uchun” g‘oyasini hamda bugungi islohotlarning bosh tamoyili bo‘lgan “Inson – jamiyat – davlat” degan yondashuvlar asosida amalga oshirilmoqda.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023 yil 30 aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilinib, joriy yilning 1-may sanasidan kuchga kirdi. Ushbu Konstitutsiyamizning matni olim-u mutaxassislar tomonidan faqat kabinetlarda



yaratilmadi. Balki, dastavval ikki bosqichda xalqimizning fikri, takliflari o'rganildi, shundan so'nggina Konstitutsiya loyihasi tayyorlandi. Avvallari esa Konstitutsiya qabul qilishda dastlab loyiha ishlab chiqilib, keyin xalq muhokamasiga qo'yilardi.

Konstitutsiya loyihasi referendumga chiqarilishidan oldin loyiha jamoatchilikning keng qatlamlari tomonidan muhokamadan o'tkazilib, buning natijasida 220 mingdan ortiq takliflar kelib tushgan. Bunday muhokama mamlakatimiz tarixida hech qachon bo'lmagan. Konstitutsiyaviy qonun loyihasi ushbu takliflar asosida shakllangib, ushbu Konstitutsiyani tom ma'noda "Xalq Konstitutsiyasi" deb aytish mumkin. Zero, Konstitutsiya loyihasi fuqarolardan kelib tushgan 220 mingdan ortiq takliflar asosida shakllantirildi. Konstitutsiya ham mazmunan, ham shaklan mutlaqo yangi Konstitutsiya bo'lmoqda. Konstitutsiyaning moddalari 128 tadan 155 taga ko'payib, normalari 275 tadan 434 taga, ya'ni 65 foizdan ko'proqqa oshdi. Konstitutsiyada O'zbekiston – suveren, demokratik, huquqiy va ijtimoiy davlat ekani qat'iy belgilab qo'yilmoqda. Konstitutsiyada kambag'allikni qisqartirish, bandlikni ta'minlash, ishsizlikdan himoya qilish bo'yicha, umuman davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlari bilan bog'liq Konstitutsiyadagi normalar 3 barobar ko'paytirildi. Xususan, Konstitutsiyada har kimning uy-joyli bo'lish huquqi belgilandi. Ushbu normaning amal qilishi har bir fuqaro, jumladan, yosh oilalarning o'z boshpanasiga ega bo'lishini ta'minlab, kishilarning hayotdan rozilik darajasini oshiradi. Shu bois yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 47-moddasida "Aholining ijtimoiy jihatdan ehtiojmand toifalarini uy-joy bilan ta'minlash tartibi qonunda belgilandi", degan yangi insonparvar norma mustahkamlandi.

Bundan tashqari, hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi, uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning qiymati hamda u ko'rgan zararlarning o'rni qonunda nazarda tutilgan



hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda (bozor qiymatida) qoplanishi ta'minlanishi kafolatlandi.

Konstitutsiyamiz to'liq xalqning huquqiy ehtiyojlariga mos ravishda qabul qilinganligining bevosita guvohimiz. Ushbu qonunimiz bizdan keyingi avlod uchun ham ustuvor, barqaror ishlashining guvohi bo'lamiz. Mustaqil davlatning mustaqil qonuniyati har bir jabhada davlat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sud tizimlari kabi organlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishidan yiroq bo'laylik. Chunki qonunqoida chegarasida bo'lgan inson, fuqaro aynan to'g'ri yo'lda ya'ni muvaffaqiyatga erishishga qadam qo'yilgan maqsadning mevasidir. Har bir ishda hikmat bor deganlaridek qonunni qabul qilishdan maqsad sog'lom, tinch, barqaror, huquqiy bilimlarni o'zida mukammallashtirgan, jamiyatda yetuk inson bo'lib yetishishga ko'maklashadigan xalqni qurishimiz lozim.

Buni albatta birinchi navbatda ushbu soha vakillarini kasbiy malakasini oshirishi ularni ushbu kasbga qayta tayyorlash, adolatli sud-huquq tizimini yuritish, jabrlanuvchilar uchun qonun ishlayotganini isbotlash maqsadida fuqarolar, jamoat birlashmalari, ta'lim kabi sohalarda ko'proq profilaktik tadbirlar o'tkazgan holda amalga oshirishimiz lozim. Har jabhada qonun ustuvorligini ta'minlash bu davlatning ham burchi ham maqsadi ham vazifasidir. Konsitutsiyam- mening huquqim, burchim va majburiyatim. Konstitutsiya bu mening amaliyotda qo'llaydigan hayot qonunlarimning qonuniy ifodasidir. Qonun uchun kurashmoq xalq uchun kurashmoqdir. O'z huquqingizni poymol qilishlariga yo'l qo'ymang. Zero, barcha huquqlaringiz qonun himoyasidadir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. www.kun.uz- Yangi konstitutsiya. 10 ta asosiy o'zgarish nomli maqolasi. 02.05.2023-yil.
2. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlarining milliy bazasi rasmiy sayti.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning birinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumidagi nutqi. 05.03.2020-yil.
4. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuni. 25.12.2019-yil.